

YUSUF XOS HOJIBNING „QUTADG’U BILIG” ASARINING BADIİY MAZMUNI

Xushanov Alisher Oydin o`g`li

Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti

Turkiy tillar fakulteti 3-bosqich talabasi

Abstract. Ushbu maqolada, turkiy xalqlar hayotidagi ilk didaktik ruhda yozilgan asarlardan biri Yusuf Xos Hojibning „Qutadg’u bilig” bo`lib, bilim, ta`lim-tarbiya, turli soha mutaxassislarining o`z kasbiga fidoyi bo`lishi, inson qadri uning bilimi, xulqi, odobi bilan o`lchanishi haqida so`z yuritiladi.

Keywords: Yusuf Xos Hojib, „Qutadg’u bilig”, didaktika, bilim, adabiyot, hayot.

Mumtoz adabiyotimizdagi asarlarning qiymati o`z davrida qanchalar qadrli bo`lgan bo`lsa, bugungi kunda ham ular kitobxonlar tomonidan sevib o`qiladi. Qadim ajdodlarimizning o`sha davrdagi dunyoqarashi, turli sohalarga oid bu ilmiy manbalar bugungi kunning rivojlanishiga o`z ta`sirini o`tkazmay qolmaydi. Ma`lumki, Sharq Uyg`onish davrida ma`naviy-ma`rifiy sohada asosiy masala inson muammosi bo`lgan. Inson ta`lim-tarbiya masalasiga katta e`tibor qaratilgan. Bu muammo bugungi kunda ham jamiyatimizning eng dolzarb mavzularidan biridir. Didaktik asarlarda Sharqqa xos bo`lgan insonning axloqiy kamoloti, oliy darajadagi yuksalish muammosi yetakchi g`oya bo`lgan. Shuning uchun ham o`sha davrda ta`limiy-tarbiyaviy risolalar paydo bo`lib, axloqning ham nazariy, ham amaliy masalalari tahlil etilgan. Jumladan, „Qutadg’u bilig”, „Qobusnoma”, „Hibbat ul-haqoyiq”, „Guliston”, „Bo`ston”, „Mahbub ul-qulub” asarlari pedagogik jihatdan muhim ahamiyatga ega bo`lgan qo`lyozmalardir. Bular qatorida Yusuf Xos Hojibning „Qutadg’u bilig” asari turkiy xalqlar hayotidagi ilk didaktik ruhda yozilgan „turkiy shohnoma” hisoblanadi. Asarda adib insonning dasturxon boshida qanday o`tirishidan tortib, mamlakatni qanday idora etish kerakligi sirlarini aytib o`tgan. Asarning yaratilishi, uning yozilish usuli, shakli ham sharq adabiyotida o`ziga xos yangilik bo`ldi. „Qutadg’u bilig” turkiy adabiyotda ilk marotaba aruz vaznida yozilgan asar sanaladi. Asar Abulqosim Firdavsiyning „Shohnoma”si ta`sirida yaratilgan bo`lib, vazni ham aruzning mutaqorib bahridadir. Bilamizki, aruzda shohlarga bag`ishlab yozilgan asarlar mutaqorib bahrida yoziladi.

Bugungi kungacha ko`pgina olimlar tomonidan turli xil qarashlarga ega bo`lgan masalalardan biri bu „Qutadg’u bilig”ning tuzilishi. Bu asar 73 fasldan iborat bo`lib, 11 fasli muqaddima 12-fasldan boshlab voqealar rivoji boshlanadi. Qizig`I shundaki, asarda ikki xil shakldagi muqaddima bor: nasriy muqaddima va nazm shaklda yaratilgan muqaddima. Bilamizki, mumtoz asarlar muqaddimasida Allohga hamd, payg`ambarga na`t izhor etiladi. Yusuf Xos Hojibning „Qutadg’u

bilig” asarining ikki xil shakldagi muqaddimasida ham xuddi shular keltiriladi. Yana bir e’tiborli tomoni shundaki, nasriy mundarijada shoir III shaxs sifatida ta’rif etiladi: „Bu kitobni tartib beruvchi Bolosog’unda tug’ilibdir. Ammo bu kitobni Koshg’arda tugul qilib, Mashriq maliki Tavg’achxon dargohiga keltiribdir. Ko’rinadiki, haqiqatdan ham asar mundarijasining nasriy qismi boshqa bir shaxs tomonidan yaratilgan lekin u shaxs bugungi kunda ham noma’lum.

Asarning badiiy mazmuniga to’xtladigan bo’lsak, asarda bilim, ta’lim-tarbiya, turli soha mutaxassislarining o’z kasbiga fidoyi bo’lishi kerakliklari aytib o’tiladi. Asarda inson qadri uning bilimi, xulqi, odobi bilan o’lchanishi qayd etiladi. Alloh taolo barcha mavjudotlar ichida insonni tabiatning gultoji sifatida yaratgan. Unga hunar, bilim va uquv berdi.

Bilig berdi yanluq bedudi bu kun,

Uqush berdi o’tru yozildi tugun.

Bilim bilan inson ulug’likka erishadi. Uquv bilan inson ulug’likka erishadi. Uquv bilan barcha tugunlar yechilishi aytiladi. Bu bayt mazmuni o’sha davrda ham bugungi kunda ham, bizdan keyingi avlod hayotida ham o’z ahamiyatini yo’qotmaydi.

Kishan ul kishike bilig ham uqush

Kishanlig’ yaroqsizg’a barmas okush.

Mazmuni:

Bilim ham zakovat kishi uchun go’yo bir kishandir,

Kishanli esa ortiq yaroqsiz ishlarga bora olmaydi.

Darhaqiqat, aql-zakovatga ega bo’lgan shaxs noto’g’ri bo’lgan ishlarni amalga oshirmaydi, vaqtni zoye ketkazmaydi, insoniylik chegaralaridan chetga chiqmaydi. Aslida asarning tub mohiyati ham yuksaklikka, komilikka bilum vositasida borishdir. Muqaddas Qur’oni Karimda ham bilim juda yaxshi ta’rif etiladi. Insonning imonidan keyingi eng asosiy boyligi ilmidir. „Alloh sizlardan imon keltirgan va ilm ato etilgan zotlarni (baland) daraja (martaba)larga ko’tarur”. Ko’rib turganimizdek, inson avvalambor o’z imoniga sodiq bo’lishi kerak va ilm darajasini kengaytirib borishi lozimdir. Bu haqida Yusuf Xos Hojib ham o’z asarida juda go’zal dalillar keltiradi. Shoir Xudoni e’tirof qilish va din shariat yo’lini bir dam ham unutmaslikni targ’ib qiladi. Lekin dunyoviy, hayotiy masalalarda, hayot bilan kurash masalalarida dinga mute’ bo’lib qolmaslikka chaqiradi.

Tapundim teyu san unutma uqush,

Mazmuni :

Deya toat edim, unutma uquv.

Yusuf Xos Hojib dunyo ishlarining barchasidan voqif bo'lishga chaqiradi. Shoir asarda bundan tashqari boshqa dolzarb mavzularda ham qalam tebratadi. Asar 4 ta asosiy qahramondan iborat:

Kuntug'di - adolat, Oyto'ldi - davlat O'g'dulmish - aql, O'zg'urmish - qanoat. Mana shu to'rtta qahramonlar suhbatlari jarayonida turli hayotiy masalalar bir-biriga bog'langan holda bayon etiladi. Ularning o'zaro munozaralarida adolat, aql-zakovat, davlat, qanoat kabi masalalar ustuvor mavzu hisoblanadi. Shoir bu 4ta qahramon orqali o'zining davlat siyoastiga oid qarashlarini tasviiylaydi. Insonning yuksaklikka erishish uchun kerak bo'ladigan barcha amallar to'g'risida so'z yuritadi. Bilamizki, adabiyotimiz tarixida ijod qilgan ko'pgina ijodkorlar til masalasini alohida ta'rif etadi, so'zning qudrati naqadar buyuk ekanligini aytib o'tadi.

Og'ush so'zlama so'z birar so'zle az

Tuman so'z tugunin bu bir so'zda yaz.

Mazmuni:

So'zni ko'p so'zlama, bir oz ozroq so'zla

Tuman ming so'z tugunini ya'ni jumbog'ini shu bir so'zda yech.

Og'ush so'zlasa yangshadi ter tilig.

Yana so'zlamasa agin ter tilig.

Mazmuni:

Ortiqcha so'zlasa, tilni ezma landi deyiladi,

So'zlama sochi, uni yana gung -lol deyiladi.

Ortiqcha so'zning zarari haqida ko'p asarlarda uchratganmiz, lekin judayam kam gapirish ham insonning martabasini past qilishi mumkin. Shuning uchun bitta tugunni o'z o'rnida bitta so'z bilan yechish kerak bu asl donolikdir.

Eki nang bila er qarimiz ozi

Bir egyu qilinchi bir egyu so'zi.

Mazmuni:

Kishi o'zi ikki narsa tufayli qarimaydi.

Biri ezgu xulqi, biri ezgu so'z.

So'zi to'g'ri bo'lgan kishining o'zi ham to'g'ri bo'lishi bejiz emas. Ham so'zi, ham axloqi ezgu bo'lgan insonning yuzi hqr doim yorug' bo'ladi, qancha uzoq umr ko'rsa ham qarimaydi.

Yusuf Xos Hojib o'zining to'rtta qahramoni suhbatlari jarayonida davlatning barqaror emasligini adolatning har doim har qanday vaziyatda hammaga barobar bo'lishi kerakligini aytadi.

Keyik sani davlat kishika tezig

Qali kelsa bakle tusha ham tezig.

Mazmuni:

Davlat kiyik kabi, u kishidan qochadi,

Agar u kelib qolsa, mahkam tut tizginlab ol.

Yana shoir davlatning inson qo'lida hamma vaqt bo'lmasligini, u oy kabi 15 kun ko'rinib 15 kun yo'q bo'lishini Oyto'ldi ismi bilan bog'lab tashbehlar keltiradi.

Adib adolat timsoli sifatida Kuntug'di eligini oladi. Uning ismi ham o'zi anglatayotgan sufatga to'g'ri keladi va buni asard go'zal o'xshatishlar bilan tasvirlaydi.

Uchunchi bu kun tug'sa yerka isiq

Cechak yazlar anda tuman ming tusig.

Qayu elke tegsa mening bu torum

Ul el barcha etlur tash ersa qurum.

Mazmuni:

Agar kun chiqsa yerga issiqlik beradi,

Undan tuman ming turli gul ochiladi.

Mening adolatim qaysi birelga yetsa ,

U el barchasi yashnaydi, garchi tosh qoya bo'lsa ham.

Quyosh (kun) past-u balandga, gulzor-u xarobaga nur sochgani kabi elig adolati ham barcha fuqarolarga birdek munosabtda bo'lishi lozim. Shohning adolatli bo'lishi, odil siyosat yuritilishi hamma davrlarda o'ziga xos masala bo'lgan. Yusuf Xos Hojib Kuntug'dini o'z asarida tasvirlar ekan, bilim zakovatga boyligini, uzoqni ko'ra olish hamda shu bilan adolatning qudratini ham zikr etadi.

„Qutadg'u bilig“ da O'g'dulmish va O'zg'urmish obrazlari ham yetakchi rol o'ynaydi. Oyto'ldining o'g'li Og'dulmish aql va zakovat timsoli bo'lib Oyto'ldining o'rnini ya'ni vazirlik darajasini egallaydi. Oyto'ldi vafoti oldidan o'z o'g'liga nasihat qiladi.

Qamug' eggulik qil esizdin yira

Qamig' edgu kelgay sen oldur yara.

Esiz ishla yaqma sena qilg'a qor.

Esizlik yilan- ul seni tag'ka kor.

Mazmuni:

Faqat yaxshilik qil, yomondan uzoq bo'l

Sen o'tirgan yeringga faqat yaxshilik keladi.

Yomon ishga yaqinlashma senga ziyon qiladi,

Yomonlik ilondir, u seni chaqadi ko'rgin.

„Qutadg'u bilig“dagi mavzular bugungi kunda ham jamiyatimiz doirasida o'ziga yarasha muhokamaga sabab bo'ladigan mavzular hisoblanadi. Shuning uchun ham bu asarni o'qish , o'rgatish odamlarga yetkazish lozim deb bilaman. Zero,

bugungi zamonaviy rivojlanish strategiyalari ham asrlar davomida o'rganilib kelingan o'sha didaktik asarlar negizida vujudga kelgan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Mallayev N., O'zbek adabiyoti tarixi, T., 1976;
2. O'lmas obidalar, T., 1989; To'xliyev B.,
3. Yusuf Xos Hojibning „Qutadg'u bilig“ asari, T., 1991;
4. Qayumov A., Ishoqov M., Otaxo'jayev A., Sodiqov Q., Qadimgi yozma yodgorliklar, T., 2000.